

Muddatli omonatning asosiy shartlari to'g'risidagi axborot VARAQASI*

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	«Invest Finance Bank» aksiyadorlik jamiyati; www.infinbank.com , tel: +99871-202-50-60
---	---

1-bo'lim. Omonatning asosiy shartlari

1. Omonat nomi	Infin Daromad
2. Omonatning valyutasi	Milliy valyutada (so'm)
3. Omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi	18% yillik foiz stavkasi
4. Omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi mavjudligi (hisoblangan foizni asosiy mablag'ga qo'shib qayta foiz hisoblash)	Mavjud emas
5. Omonatning muddati	18 oy
6. Omonatga qo'yiladigan mablag'ning eng kam miqdori	500 000 so'm
7. Omonat bo'yicha foizlarni to'lash davriyligi	Har oy to'lanadi
8. Omonatni rasmiylashtirish usuli	Onlayn/bankka tashrif buyurish orqali
9. Qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyati	Birinchi 6 oyda mavjud
10. Avtouzaytirish (omomat muddati tugaganda omonat muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish)	Avtouzaytirish ko'zda tutilmagan
11. Boshqa shartlar	Omonat foizlari talab qilib olinguncha depozit xisob raqamiga / elektron xamyon xisob raqamiga

2-bo'lim. Boshqa muhim shartlar

1. Omonatga qo'yilgan pul mablag'larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi	Mavjud emas
2. Omonat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi	Omonat muddatidan oldin yopilganda, ilgari hisoblangan (to'langan va to'lanmagan foizlar) yillik 16,2 foiz stavkada qayta hisob-kitob qilinadi, ilgari berilgan foizlarning farqi omonatning asosiy summasidan ushlab qolinadi.
3. Omonatlarni himoya qilish kafolati	InfinBank omonatlarni kafolatlash tizimi ishtirokchisi hisoblanadi. Omonatlar kafolatini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. "Invest Finance Bank" AJda ochilgan omonatlar bankning moliyaviy barqarorligi bilan kafolatlanadi. Batafsil www.fgd.uz

Omonat qo'yishga rozi bo'lishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqing!

Siz omonatning shartlari, daromadlar va omonat bo'yicha hisob-kitoblar tartibi to'g'risida, shuningdek huquqlaringiz va majburiyatlaringiz, Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni +99871-202-50-60 raqamli telefonga yoki Toshkent sh., Mirzo-Ulugbek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 17B-uy manzilga yoki info@infinbank.com elektron manzilga jo'natishingiz mumkin.

* Mazkur varaqa omonat shartnomasi yoki omonat olish uchun buyurtmanoma o'rnini bosmaydi, aksincha turli banklarning omonat shartlarini taqqoslashga va kerakli tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.